2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

TURLI SAQLASH TIZIMLARIDA PARVARISHLANGAN BUQACHALARNING O‘SISHI VA RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI

Shakirov Qaxramon Jurabaeyvich - Toshkent davlat agrar universiteti, Umumiy zootexniya va zootexnologiyalar kafedrasi, professori q.x.f.d (DSc), q.shakirov1985@gmail.com. ORCID: 0009-0009-9598-5757.

Raximov Madaminjon Alijonovich - Farg‘ona davlat universiteti, Tomorqa yerlaridan samarali foydalanish va dorivor o‘simliklar kafedrasi, professor q.x.f.d. (*DSc*),. madaminjon0310@gmail.com.

ORCID: 0000-0002-8598-4648.

Seytmusaeva Zuxra Abatbaevna - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, Zooinjineriya kafedrasi v.v.b dotsenti q.x.f.f.d. (PhD), zuxraseytmusayeva@gmail.com

https://orcid.org/0009-0008-4471-2831

Urimbetov Axmet Abdirazakovich-Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, Zooinjineriya kafedrasi dotsenti q.x.f.d. (*DSc*), https://orcid.org/0009-0001-3726-7062

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311079

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
399–403

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Shakirov Q.J., Raximov M.A., Seytmusaeva Z.A., Urimbetov A.A. Turli saqlash tizimlarida parvarishlangan buqachalarning o‘sishi va rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’siri // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 399–403. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311079

ANNOTATSIYA Maqolada turli texnologik boqish usullarining buqachalar o‘sishi va rivojlanishiga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotlar Farg‘ona viloyati Quvasoy tumanidagi “Shukurdavlat” fermer xo‘jaligida sof simmental hamda limuzin va sharole zotlari bilan chatishtirish natijasida olingan F1 duragay buqachalarda 15 kunlikdan 18 oylikkacha olib borildi. Tadqiqotda tirik vazn, o‘rtacha sutkalik o‘sish va ozuqa sarfi ko‘rsatkichlari baholandi. Natijalarga ko‘ra, sharole × simmental duragay buqachalar yuqori o‘sish jadalligini namoyon etib, sof simmentallarga nisbatan o‘rtacha sutkalik o‘sish 9,8% yuqori, 1 kg vazn o‘sishiga sarflangan ozuqa 6,3% kam bo‘ldi. Ushbu natijalar sanoat usulida chatishtirish va ilmiy asoslangan oziqlantirish texnologiyalarining go‘sht mahsuldorligini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

KALIT SO‘ZLAR buqachalar, simmental, limuzin, sharole, duragaylash, o‘sish jadalligi, tirik vazn, ozuqa sarfi, oziqlantirish texnologiyasi, go‘sht mahsuldorligi.

АННОТАЦИЯ В статье изучено влияние различных технологий выращивания на рост и развитие бычков. Исследования проводились в фермерском хозяйстве «Шукурдавлат» Кувасайского района Ферганской области на чистопородных симментальских бычках и помесном молодняке первого поколения (F1), полученном от скрещивания симментальских коров с быками пород лимузин и шароле, в возрасте от 15 дней до 18 месяцев. В ходе исследований оценивались показатели живой массы, среднесуточного прироста и расхода кормов. Установлено, что помесные бычки шароле × симментал характеризовались более высокой интенсивностью роста: среднесуточный прирост был на 9,8% выше, а затраты кормов на 1 кг прироста живой массы — на 6,3% ниже по сравнению с чистопородными симменталами. Полученные результаты свидетельствуют о значении

промышленного скрещивания и научно обоснованных технологий кормления в повышении мясной продуктивности животных.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА бычки, симментальская порода, лимузинская порода, шаролезская порода, скрещивание, интенсивность роста, живая масса, расход кормов, технология кормления, мясная продуктивность.

ABSTRACT The article examines the effects of different rearing technologies on the growth and development of young bulls. The study was conducted at the Shukurdavlat farm in Quvasoy District, Fergana Region, using purebred Simmental bulls and first-generation (F1) crossbred bulls obtained by crossing Simmental cows with Limousin and Charolais bulls. The animals were studied from 15 days to 18 months of age. Live weight, average daily gain, and feed consumption were evaluated. The results showed that Charolais × Simmental crossbred bulls demonstrated a higher growth rate than purebred Simmental bulls. Their average daily gain was 9.8% higher, while feed consumption per 1 kg of live weight gain was 6.3% lower. These findings highlight the importance of industrial crossbreeding and scientifically based feeding technologies in improving beef productivity.

KEYWORDS young bulls, Simmental, Limousin, Charolais, crossbreeding, growth rate, live weight, feed consumption, feeding technology, beef productivity.

Kirish. Bugungi kunda go‘shtdor chorvachilikni rivojlantirish, yuqori mahsuldor qoramol zotlarini yetishtirish va saqlash texnologiyalarini takomillashtirish qishloq xo‘jaligining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Go‘sht mahsulotlariga talabning ortishi va intensiv chorvachilik tizimiga o‘tish buqachalarning o‘sishi hamda rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganishni talab etadi. Bunda zot tanlash, duragaylash, oziqlantirish va saqlash sharoitlarini maqbul tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamiz sharoitida simmental, sharole va limuzin zotlaridan foydalanib olingan duragaylarning o‘sish jadalligi va ozuqani o‘zlashtirish xususiyatlarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Shu bois, turli texnologik boqish usullarining buqachalar o‘sishi va rivojlanishiga ta’sirini aniqlash, ularning genetik imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda go‘sht mahsuldorligini oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tajriba tadqiqotlarini o‘tkazish uchun Qo‘shtepa tumanidagi “Shukurdavlat” fermer xo‘jaligida kelib chiqishi va yoshini hisobga olgan holda turli xil sabablarga ko‘ra asosiy podadan chiqarilgan 103 bosh simmental zotli sigirlar tanlab olindi, ulardan 50 boshi go‘shdor limuzin zotli buqalar va 53 boshi sharole zotli buqalar urug‘i bilan sanoat usulida chatishtirildi. Tadqiqot uchun sigirlar tuqqanidan so‘ng fermer xo‘jaligida har birida 15 boshdan zoti, yoshi va tirik vazni bir xil buqachalardan iborat 3 ta guruh tashkil etildi. I-tajriba guruhiga sof simmental zotli buqachalar, II-guruhga F_1 (½limuzin x ½simmental) va III-guruhga F_1 (½sharole x ½simmental) duragay buqachalari kiritildi. Tajriba o‘tkazish buqachalar tug‘ilgandan 18 oylik yoshigacha olib borildi. Tajriba buqachalarini asrash va parvarishlash tug‘ilgandan 6 oylik yoshiga qadar go‘shtdor qoramollar texnologiyasi asosida o‘z onalariga biriktirish usuli bilan amalga oshirildi. Sut ichish davri tugagach tajriba buqachalari bog‘lovsiz, aralash tipli oziqlantirish texnologiyasi asosida, umumiy guruhlarda parvarishlandi.

Tadqiqotlarning barcha davrida tajriba quqachalari uchun bir xil asrash va parvarishlash sharoiti yratildi. Tajriba buqachalarini oziqlantirish ratsionini tuzishda muvofiqlashtirilgan (detallashtirilgan) to‘laqiymatli oziqalar hisobga olinib, turli yosh davrlarida 900-1400 grammgacha kunlik tirik vazn olishga erishish ko‘zda tutilgan. Sarflangan ozuqa

miqdorlarini har bir guruhda alohida bir oyda uch marta, ketma-ket 2 kunda nazorat oziqlantirish orqali berilgan va ortib qolgan ozuqalar miqdori aniqlanib, farqi hisoblandi.

Tajriba buqachalarining ozuqa iste'moli 15 kunlikdan 18 oylikgacha bo'lgan davrda 3956,5 – 4151,7 ozuqa birligini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha ma'lumotlar III guruh (½sharole x ½simmental) F_1 duragay buqachalarida, I guruh sof simmental zotli buqachalariga nisbatan 195,2 yoki 5,0% ga va II guruh (½limuzin x ½simmental) F_1 duragay buqachalariga nisbatan 167,6 yoki 4,2% ga yuqori bo'lganligini ko'rsatdi. Butun tajriba davomida tirik vaznning bir kilogramm o'sishi uchun II va III guruh tajriba buqachalari I guruhdagi tenqurlariga nisbatan kam ozuqa birligi sarflaganligi kuzatildi, 1 kg ozuqa birligi hisobiga hazmlanuvchi protein esa barcha guruhlarda bir xil miqdorda bo'lganligi qayd etildi. Ozuqa birligining iste'moli bo'yicha tahlillar tajriba buqachalari ratsionining umumiy to'yimliligi yuqori bo'lganligini ko'rsatmoqda. Tirik vaznning 1 kg o'sishi uchun III guruh buqachalarida tenqurlariga nisbatan eng kam ozuqa sarflandi va 6,85 ozuqa birligini tashkil qildi. Bu ko'rsatkich II guruhda – 7,18 ozuqa birligi, I guruh tengqurlarida esa – 7,28 ozuqa birligidan iborat bo'ldi yoki III guruh buqachalari I va II gurug tengqurlariga nisbatan mos ravishda 0,43 yoki 6,3% ga va 0,33 yoki 4,8% ga kam ozuqa birligi sarflaganligi aniqlandi.

Tirik vaznning kunlik o'sishi oziqlantirishning intensivlik darajasini ko'rsatadi. Tajriba buqachalari tirik vaznining kunlik o'sishi 15 kunlikdan 18 oylik yoshigacha bo'lgan davrda I guruhda 1036,0 g, II va III guruhlarda mos ravishda 1058,0 va 1155,0 grammni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha ma'lumotlarda III guruh (½sharole x ½simmental) F_1 duragay buqachalari, I guruh sof simmental zotli buqachalariga nisbatan 119,0 g yoki 11,5% ga va II guruh (½limuzin x ½simmental) F_1 duragay buqachalariga nisbatan 97,0 g yoki 9,2% ga ustunlik qilganligi aniqlandi.

Buqachalar go'sht mahsuldorligini belgilovch ko'rsatkichlardan biri tirik vazn hisoblanadi. Tadqiqotlarimizda tajriba buqachalarining tirik vazni bo'yicha olingan ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan va 1-rasmda yoritilgan.


1-jadval. Tajriba buqachalari tirik vaznining o'sishi, kg

O'sish davri, oy	**Guruh (n=15)**					
	I		II		III	
	Genotipi					
	Sof simmental		F_1 duragay (½limuzin x ½simmental)		F_1 duragay (½sharole x ½simmental)	
	$\overline{X}\pm S\overline{x}$	Cv, %	$\overline{X}\pm S\overline{x}$	Cv, %	$\overline{X}\pm S\overline{x}$	Cv, %
15 kun	39,0±0,6	3,92	37,1±0,4	3,85	40,6±0,5	3,14
3	109,0±2,7	1,81	108,9±2,6**	1,75	118,7±2,2*	1,43
6	201,7±3,1	2,37	203,7±3,0	2,21	222,2±2,9	1,79
9	288,2±4,6	3,65	291,9±4,7**	3,58	318,8±4,9**	2,86
12	384,8±5,7	2,94	390,5±5,7	2,88	426,6±5,9	2,29
15	483,5±6,1	3,23	491,2±6,3**	3,18	536,3±6,**	2,75
18	582,5±7,0	3,26	592,3±7,4	3,21	646,8±7,9	2,97

Eslatma: * P<0,05; ** P<0,01; *** P<0,001

1-jadval ma'lumotlarining tahlili, sof simmental zotli I guruh buqachalari va mahsuldorligi kamligi sababli asosiy podadan ajratilgan simmental zotli sigirlarni sanoat usulida chatishtirishdan olingan II guruh (½limuzin x ½simmental) va III guruh (½sharole x ½simmental) F_1 duragay buqachalari tirik vazni bo'yicha ko'rsatkichlari, turli o'sish va rivojlanish davrlarida sanoat usulida chatishtirishdan olingan F_1 duragay buqachalarida yuqori bo'lganligini ko'rsatdi.

Tajribaga qo'yish vaqtdagi tirik vazni bo'yicha III guruh (½sharole x ½simmental) F_1 duragay buqachalari o'z tengqurlari I guruh (sof zotli simmental) va II guruh (½limuzin x ½simmental) buqachalariga nisbatan tegishli ravishda 1,6 kg yoki 4,1% ga, 3,5 kg yoki 9,5% ga (P<0,001) yuqori bo'lgan bo'lsa, II guruh (½limuzin x ½simmental) buqachalar o'z tengqurlari I guruh (sof simmental) va III guruh (½sharole x ½simmental) F_1 duragay buqachalariga nisbatan tegishlicha 1,9 kg yoki 5,2% ga (P<0,05) va 3,5 kg yoki 9,5% ga (P<0,01) past bo'lganligi kuzatildi. O'sish va rivojlanish davrining keyingi 3-oylik yoshiga kelib tirik vazn bo'yicha ko'rsatkichda III guruh (½sharole x ½simmental) F_1 duragay buqachalari o'z tengqurlari I guruh (sof simmental zotli) va II guruh (½limuzin x ½simmental) buqachalariga nisbatan tegishli ravishda 9,7 kg yoki 8,9% (P<0,001) va 9,8 kg yoki 9,0% ga (P<0,001) yuqori bo'lganligi kuzatildi.



1-rasm. Tajriba buqachalari tirik vaznining o'sishi, kg

Shuningdek, 6 oyligida tegishli ravishda 20,5 kg yoki 10,2% ga (P<0,01) va 18,5 kg yoki 9,1% ga (P<0,001), 9 oyligida 30,6 kg yoki 10,7% ga (P<0,05) va 26,9 kg yoki 9,3% ga (P<0,05) yuqori bo'lganligi qayd etildi.

Sanoat usulida chatishtirishdan olingan III guruh (½sharole x ½simmental) F_1 duragay buqachalar I guruh sof simmental zotli va II guruh (½limuzin x ½simmental) F_1 duragay buqachalariga nisbatan o'sish va rivojlanish davrining 12 oyligida ham o'z ustunliklarini saqlab qoldi. Jumladan, III guruh F_1 duragay buqachalari o'z tengqurlari I guruh sof simmental zotli va II guruh (½limuzin x ½simmental) F_1 duragay buqachalariga nisbatan tegishli ravishda 41,8 kg yoki 10,9% ga (P<0,01) va 36,1 kg yoki 9,3% ga (P<0,01) ustunlik

 https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311079

qilganligi kuzatildi. Huddi shunday tendentsiya tajriba buqachalarining 15 va 18 oyligida ham qayd etildi, jumladan 15 oylik III guruh (½sharole x ½simmental) F_1 duragay buqachalari oʻz tengqurlari I guruh sof simmental zotli va II guruh (½limuzin x ½simmental) F_1 duragay buqachalariga nisbatan tegishli ravishda 52,8 kg yoki 11,0% ga (P<0,01) va 45,1 kg yoki 9,2% ga (P<0,01), 18 oylikda esa mos ravishda 64,3 kg yoki 11,1% ga va 54,5 kg yoki 9,2% ga ustunlik qilganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Поберухин М.М. Морфологический состав, метаболиты крови и показатели неспецифического иммунитета у бычков различных генотипов. /М.М. Поберухин, В.И. Левахин, А.А. Сало и др.// Современные проблемы науки и образования. 2013.- № 5.- С. 479-481
2. Амерханов Х.А. Проект «Концепции устойчивого развития мясного скотоводства в Российской Федерации на период до 2030 года» / Х.А.Амерханов, С.А. Мирошников, Р.В. Костюк и др. // Вестник мясного скотоводства. – 2017. № 1(97) – С. 7-12.
3. Носиров У.Н. Ўзбекистон чорвачилиги кеча, бугун, эртага.// Зооветеринария жур. 2007 Нишона сон. 34-35 б.
4. Shakirov Q.J. Флегфих симментал зотли молларни генотипик сифатлари. Oʻzbekiston agrar fani xabarnomasi № 5 (11/2) 2023, 48-51 b.
5. Рахимов М.А., Юнусов М., Хабибуллаев Ф. Влияние разного соотношения зерносенажа и кукурузного силоса на переваримости питательных веществ в рационе бычков привозного скота. Жур.Агро илм, Ташкент, 2017 № 1 с.40
6. Рахимов М.А., Юнусов М., Хабибуллаев Ф. Технология комления привозного скота. Жур.Агро илм, Ташкент, 2018 № 2 с.65-66
7. Рахимов М.А., Абдурасулов Х. Интенсивная технология откорма молодняка привозного скота. Жур. Научный вестник ФерГУ.-Фергана, 2018, № 6 с.145-146
8. Рахимов М.А. Влияние технологии кормления на рост и развитие бычков, выращиваемых на мясо.. Жур.Агро илм, Ташкент, 2021 № 5 с.65
9. Рахимов М.А. Интенсификация производства говядины.. Жур.Агро илм, Ташкент, 2022 № 3 с.50-51.